

XORIJIY TILLARNI O‘QITISHDA SMART TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Gulboyeva Munavvar Eshpulatovna

Sirdaryo viloyati pedagogik mahorat markazi metodisti

munavvargulboyeva@gmail.com

USING OF SMART TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES ИСПОЛЬЗОВАНИЕ SMART-ТЕХНОЛОГИЙ В ПРЕПОДАВАНИИ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada zamonaviy ta’limda raqamli texnologiyalarning xorijiy tillarni o’qitishga ta’siri tahlil qilinadi. Raqamli ekotizimlar ta’limni transformatsiya qilishda boshqaruv vositalari, sinf darajasidagi resurslar va inson omilining uyg’unligidan iborat konseptual asos sifatida ko’riladi. SMART texnologiyalar — kompyuter dasturlari, multimedia vositalari va interaktiv qurilmalar majmuasi bo’lib, ular pedagogik faoliyatni kuchaytiruvchi vosita sifatida talqin etiladi. Shuningdek, Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR) immersiv yondashuv orqali o’quvchini faol ishtirokchiga aylantirishi, real muloqot muhiti yaratishi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishi ko’rsatib o’tiladi. Tadqiqot raqamli innovatsiyalar ta’lim samaradorligini oshirish, inklyuzivlikni mustahkamlash va sifatni yuksaltirishda muhim omil ekanini asoslaydi.

KALIT SO‘ZLAR. Virtual reallik (VR), kengaytirilgan reallik (AR), smart texnologiyalar, immersiv ta’lim, kommunikativ kompetensiya, interaktiv muhit, raqamli pedagogika, xorijiy til o’qitish metodikasi.

Annotation. In the context of modern education, the integration of digital technologies has become a decisive factor in enhancing the effectiveness of foreign language teaching. This article analyzes the role of SMART technologies in language pedagogy, emphasizing their capacity to enrich the learning process, increase efficiency, and provide a conceptual framework for staged development. The study demonstrates that the application of SMART technologies transforms learners from passive recipients into active participants, creates authentic communicative environments, and fosters the development of communicative competence. Furthermore, digital innovations are substantiated as a crucial element in improving the quality, sustainability, and outcomes of foreign language education.

KEYWORDS: Virtual Reality (VR), Augmented Reality (AR), SMART technologies, Artificial Intelligence, communicative competence, interactive learning, digital pedagogy, foreign language teaching methodology.

АННОТАЦИЯ. В условиях современного образования интеграция цифровых технологий становится решающим фактором повышения эффективности преподавания иностранных языков. В статье анализируется роль SMART-технологий в методике обучения, подчеркивается их способность обогащать учебный процесс, повышать его результативность и обеспечивать концептуальную основу для поэтапного развития. Показано,

что применение SMART-технологий превращает обучающихся из пассивных слушателей в активных участников, создает аутентичную коммуникативную среду и способствует формированию коммуникативной компетенции. Кроме того, цифровые инновации обоснованы как важный элемент совершенствования качества, устойчивости и результатов обучения иностранным языкам.

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА: Виртуальная реальность (VR), дополненная реальность (AR), SMART-технологии, искусственный интеллект, коммуникативная компетенция, интерактивное обучение, цифровая педагогика, методика преподавания иностранных языков.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi xorijiy tillarni o'qitishda yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalar ta'limni boyitish, inklyuzivlikni kuchaytirish va sifatni oshirishda muhim vosita sifatida talqin etiladi. Bu o'qish sifatini va dolzarbligini oshirishi, inklyuziyani kuchaytirishi, hamda ta'limda menejmentni yaxshilashi mumkin (www.unesco.org, 2024).

Shu nuqtai nazardan, raqamli ta'lim ekotizimlari zamonaviy ta'limni transformatsiya qilishda muhim konseptual asos sifatida qaralmoqda. Ular uch asosiy komponentni o'z ichiga oladi: birinchidan, tizim va muassasa boshqaruvi uchun mo'ljallangan raqamli vositalar; ikkinchidan, o'qitish, o'rganish va baholash jarayonlarini qo'llab-quvvatlovchi sinf darajasidagi raqamli vositalar; uchinchidan, ushbu texnologiyalarga mazmun va ma'no beruvchi inson omili. Aynan shu integratsiya ta'limni yanada samarali, inklyuziv va barqaror qilishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi (OECD, 2023).

Mazkur global tendensiyalar fonida aqlli texnologiyalar alohida ahamiyat kasb etadi. SMART texnologiyalar bu kompyuter dasturlari, multimedia vositalari, intellektual ta'limiy ilovalar va interaktiv qurilmalar majmuasi bo'lib, ular ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Amerikalik tilshunos Ray Klifford ta'kidlaganidek, "Kompyuter texnologiyalari o'qituvchilarni almashtirmaydi, ular faqat o'z amaliyotida bu texnologiyalardan foydalanadigan boshqa o'qituvchilarni almashtiradi" (Чернышкова, 2018). Darhaqiqat, mazkur texnologiyalar o'qituvchining o'rnini emas, balki pedagogik faoliyatini kuchaytiruvchi vosita sifatida hisoblanadi. Shu bilan birga, VR va AR texnologiyalari immersiv yondashuv orqali o'quvchini passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantiradi, real muloqot muhiti yaratadi va kommunikativ kompetensiyani rivojlantiradi. Shu sababli, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bugungi kunning dolzarb vazifasidir.

MUHOKAMALAR VA NATIJALAR

Takidlash joizki, AR va VR texnologiyalarining ta'lim jarayoniga kirib kelishi o'quvchilarning bilim olish usullarini tubdan o'zgartirmoqda. Muhandislik, tarix va tabiiy fanlarda qo'llanilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, immersiv muhit o'quvchilarning fazoviy idrokini, tarixiy kontekstni anglashini va xavfsiz sharoitda tajriba o'tkazish imkoniyatini sezilarli darajada kengaytiradi. Til

o'qitishda esa AR/VR texnologiyalari o'quvchilarga real muloqot muhiti yaratib, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilishi mumkin. Ayniqsa, bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida xorijiy tillarni o'rganish nafaqat muloqot vositasi, balki zamonaviy mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanganligini inobatga olish zarur.

Ma'lumki, an'anaviy ta'lim tizimida til o'rganuvchilar duch keladigan eng katta muammo – bu real muloqot muhitining yetishmasligi va til to'sig'i hisoblanadi. O'quvchilar grammatik qoidalarni yod olishadi, nazariy bilimlarni mukammal o'zlashtirishadi, biroq hayotiy vaziyatlarda chet tillarida erkin so'zlashishda qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar. Ana shunday sharoitda pedagogdan VR (Virtual Reality) va AR (Augmented Reality) texnologiyalari qo'llagan holda ta'limda immersiv yondashuvni joriy etish hamda o'quvchini passiv kuzatuvchidan faol ishtirokchiga aylantirishni taqozo etadi. Bu jarayon konstruktivizm nazariyasi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bilim o'quvchi tomonidan tajriba orqali yaratiladi. Kommunikativ yondashuv nuqtai nazaridan esa VR hamda AR texnologiyalari real muloqot muhiti yaratib, tilni amaliy qo'llash imkonini beradi. Masalan, VR simulyatsiyalarida o'rganuvchilar aeroportda chipta olish, mehmonxona band qilish yoki restoranda buyurtma berish kabi vaziyatlarda tilni mashq qilishlari mumkin. AR ilovalari esa real muhitga qo'shilgan raqamli elementlar orqali so'z boyligini kengaytirish va grammatik qoidalarni vizual mustahkamlash imkonini beradi. Shuningdek, AR va VR texnologiyalarining ta'limdagi qo'llanilishi o'quvchilarning diqqatini jamlash va o'quv jarayoniga chuqur sho'ng'ish imkonini beradi. O'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki (Gadhella, 2018), VR sinfdagi vizual va eshitish chalg'ituvchilarni bartaraf etib, o'quvchilarning material bilan bevosita aloqada bo'lishiga yordam beradi. Shuningdek, VR kontenti o'quvchilarga o'rganilayotgan mavzuni real hayotiy tajriba bilan bog'lash imkonini berib, bilimni shaxsiy kontekstda mustahkamlaydi (Meyer, 2016). AR texnologiyalari esa joylashuvga asoslangan o'yinlar, kampus ekskursiyalari va shahar bo'ylab interaktiv topshiriqlar orqali o'quvchilarga tilni amaliy qo'llash imkonini yaratadi. Bu jarayon bevosita muloqot ko'nikmasini rivojlantirish va madaniy kontekstni anglashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ushbu texnologiyalarning xorijiy til o'rgatishdagi afzalliklarini quyidagicha ta'riflash mumkin.

1. Autentik muhitga integratsiya. VR simulyatsiyalari yordamida o'quvchilar aeroportda chipta olish, mehmonxonada band qilish yoki restoranda buyurtma berish kabi real hayotiy vaziyatlarda tilni mashq qilishlari mumkin. AR ilovalari esa real muhitga qo'shilgan raqamli elementlar orqali so'z boyligini kengaytiradi va grammatik qoidalarni vizual mustahkamlaydi. Bu jarayon til o'rganishni sun'iy mashg'ulotdan ko'ra real muloqotga yaqinlashtiradi.

2. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv. VR/AR platformalari individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Masalan, o'quvchi o'z darajasiga mos virtual mashqlarni tanlashi, AR orqali esa shaxsiylashtirilgan

lug‘at kartochkalari va interaktiv topshiriqlarni bajarishi mumkin. Bu o‘quvchining mustaqil rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi.

3. Darhol Feedback berish imkoniyati. VR muhitida o‘qituvchi o‘quvchini kuzatib, uning talaffuzidagi xatolarni darhol ko‘rsatishi mumkin. AR ilovalari esa mashq jarayonida avtomatik izoh va tuzatishlarni taqdim etadi. Bu tezkor aloqa o‘quvchining bilimni darhol to‘g‘rilashiga yordam beradi.

4. Ochiq ta‘lim resurslari. VR/AR texnologiyalari internetdagi ochiq resurslar bilan integratsiyalashgan holda ishlaydi. Masalan, o‘quvchilar yoki talabalar VR orqali virtual muzey ekskursiyalarida qatnashib, AR yordamida eksponatlar haqida qo‘shimcha ma‘lumot olishlari mumkin. Bu til o‘rganishni yanada boyitadi va madaniy kontekstni chuqurroq anglash imkonini beradi.

5. Motivatsiyani oshirish. VR o‘yinlari va AR interaktiv topshiriqlari talabalarni faol ishtirok etishga undaydi. Masalan, AR orqali shahar bo‘ylab “til kvestlari”ni bajarish yoki VR muhitida guruhiy muloqot mashqlarida qatnashish o‘quvchilarning qiziqishini kuchaytiradi. Bu jarayon o‘qishga bo‘lgan motivatsiyani sezilarli darajada oshiradi.

6. Kompetensiyalarni shakllantirish. VR/AR texnologiyalari yordamida o‘quvchilar kommunikativ kompetensiyani (real muloqot) yaxshilash bilan birga, refleksiv kompetensiyani (o‘z nutqini tahlil qilish), va akseologik kompetensiyani (madaniy qadriyatlarni anglash) rivojlantiradilar. Masalan, VR muhitida turli millat vakillari bilan suhbatlashish, AR orqali esa madaniy elementlarni o‘rganish ularni zamonaviy jamiyatda faol ishtirok etishga tayyorlaydi.

Ta‘limda mazkur texnologiyalardan foydalanishda avvalo bir qator muhim jihatlarni hisobga olish zarurdir. Har qanday texnik innovatsiyada bo‘lgani kabi, bu jarayon o‘qituvchi hamda o‘quvchilar tomonidan ma‘lum darajada vaqt va kuch sarfini talab qiladi. O‘qituvchilar texnologiyani o‘zlashtirish va talabalarni qo‘llab-quvvatlash uchun qancha vaqt ajratishi mumkin? Shuningdek, talabalar zarur darajadagi qurilmalarga ega bo‘lishadimi? Agar bunday imkoniyat bo‘lmasa, ular qurilmalarni o‘zaro bo‘lishib ishlata oladilarmi?

Bundan tashqari, AR va VR texnologiyalari maxfiylik va xavfsizlik masalalarini ham yuzaga keltiradi. Internetdagi odatiy maxfiylik va xavfsizlik muammolaridan tashqari, VR muhitida e‘tibordan chetda qoldirilmasligi kerak bo‘lgan yangi xavflar mavjud. Masalan, onlayn chat xonalari yoki o‘yinlarda uchraydigan kiberhujumlar VR muhitida yanada murakkab shaklda namoyon bo‘lishi mumkin. Tajovuzkorlar boshqa foydalanuvchining shaxsiy makoniga kirib borishi, uni o‘zini himoya qilish yoki muhitdan chiqib ketish imkoniyatidan mahrum qilishi mumkin. Yaratilish jarayoniga asoslangan VR muhitlarida esa tajovuzkorlar foydalanuvchilarning ijodiy ishlarini buzishi yoki butunlay yo‘q qilishi ehtimoli mavjud. Shu sababli, o‘rganuvchilar faqat maxsus parol bilan himoyalangan ijtimoiy VR makonlaridan foydalanishi va o‘qituvchi ularning o‘zaro muloqotini muntazam nazorat qilishi muhimdir. Bu esa muhitda salbiy holatlarning oldini olishga yordam beradi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, bugungi kunda SMART texnologiyalarni xorijiy tillarni o‘qitish jarayoniga keng joriy etish O‘zbekiston ta‘lim tizimi uchun strategik ahamiyat kasb etmoqda. Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev tomonidan xorijiy tillarni o'qitishga qaratilayotgan e'tibor, bu sohada davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlanayotgan islohotlar, zamonaviy texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishni yanada dolzarb qiladi. Yuqorida ta'kidlab o'tilgan zamonaviy texnologiyalar nafaqat til o'rganish samaradorligini oshiradi, balki yosh avlodning global raqobatbardoshligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu texnologiyalarni qo'llash:

- ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning bilimni chuqurroq o'zlashtirishiga yordam beradi;

- inklyuzivlikni kuchaytirish, turli hudud va sharoitdagi o'quvchilarga teng imkoniyat yaratadi;

- madaniy kontekstni boyitish, tilni o'rganish jarayonida turli xalqlarning madaniyatini chuqurroq anglash imkonini beradi;

- pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlash, o'qituvchilarning metodik imkoniyatlarini kengaytiradi. Shu bois, Prezidentimiz tashabbuslari bilan amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari doirasida SMART texnologiyalarni xorijiy tillarni o'qitish metodikasiga keng joriy etish, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning global kompetensiyalarini shakllantirish va zamonaviy mutaxassislarni tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon O'zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzini mustahkamlashga, yosh avlodni zamonaviy bilim va ko'nikmalar bilan qurollantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Чернышкова, Н. В. (2018). SMART-технологии в преподавании иностранного языка. Филологические науки. Вопросы теории и практики, (2-1 (80)), 211-214.

2. OECD. (2023). OECD Digital Education Outlook 2023: Towards an Effective Digital Education Ecosystem, OECD Publishing, Paris. <https://doi.org/10.1787/c74f03de-en>.

3. Gadelha, R. (2018). Revolutionizing Education: The promise of virtual reality. Childhood Education, 94(1), 40-43. doi:10.1080/00094056.2018.1420362

4. Meyer, L. (2016). Students explore the earth and beyond with virtual field trips. THE Journal, 43(3), 22-25.

5. Why does UNESCO consider digital innovation in education important? Retrieved from <https://www.unesco.org/en/digital-education/need-know?hub=84636>